Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TIBBIY TERMINLARNING METAFORALASHUVI

Xazratqulova Xusnidabonu Oybekovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
khazratkulovabonu@gmail.com
+998889477808

Azimova Zuhro Ismatilloyevna
Xorijiy tillar kafedrasi assistenti,
filologiya bo‘yicha falsafa doktori
zuhroazimova9@gmail.com
+998972888872
https://doi.org/10.5281/zenodo.21844260

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida tibbiy terminlarning shakllanishi, semantik xususiyatlari, metaforalashuvi va ularning o‘zbek tilidagi o‘rni misollar yordamida ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: tibbiy termin, xuruj, parda, organizm, jigar, metaformizatsiya

МЕТАФОРИЗАЦИЯ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация: В статье на примерах рассматриваются процессы образования и метафоризации медицинских терминов в узбекском языкознании, их семантические особенности и роль в узбекском языке.
Ключевые слова: медицинский термин, приступ, пелена, организм, печень, метафоризация

METAPHORIZATION OF MEDICAL TERMS IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation: This article explains the formation, semantic features, metaphorization of medical terms in Uzbek linguistics and their role in the Uzbek language using examples.
Keywords: medical term, attack, veil, organism, liver, metaformization

Aniq fanlarning rivojlanishi tilga, uning rivojlanish qonunlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Yangi texnologiya va usullarning yuzaga kelishi munosabati bilan ko‘plab zamonaviy terminlar shakllanadi. Ma’lumki, yurtimizda tibbiyot XX asrda Yevropa tibbiyoti asosida rivojlandi. Qo‘llanmalar, darsliklar, fan yutuqlari, barcha ilmiy ishlar rus tilda yozildi. O‘zbek tilida yozilgan katta-kichik asarlardagi tibbiy terminlar lotincha-ruscha shaklda olindi. Binobarin, lotincha terminlar rus tiliga qanday shaklda olingan bo‘lsa, o‘zbek tilida ham shu shaklda o‘zlashtirildi. Keyinchalik mustaqillikning dastlabki yillarida bu bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Fanlar Akademigi Y. X. To‘raqulov, A. Usmonxo‘jayev, V.Avakov, E. Basitxanova tomonidan tibbiy lug‘atlar yaratildi.

Tibbiyot terminologiyasini ikki qatlamga ajratish mumkin: a) umumiy terminologiya; b) ixtisoslashgan terminologiya.

Umumiy terminologik qatlam fanning turli sohalarida qo‘llaniladigan so‘zlar, atamalar, masalan, dori, qurilma, vosita, element nomlarini o‘z ichiga oladi. Maxsus fan sohasida qo‘llaniladigan atamalar

tibbiyotning yuqori ixtisoslashgan terminologiyasiga tegishlidir. Masalan, koronar, yurak kasalligi, adenomatoz, infeksiya va boshqalar.

Hozirda ommaviy diskurslarda terminlar soni haddan tashqari ortib ketdi. Buning ikkita muhim omili bor. Birinchidan, aholining ta'lim darajasi yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Ikkinchidan, jamiyatda ommaviy axborot vositalarining o'rni o'sib ketdi. Birinchi holatda aholini o'qitishda har bir fan doirasida yangidan yangi terminlardan foydalanish zarurati kelib chiqmoqda. Ikkinchi holatda esa yaratilgan terminlar targ'iboti va ommaviylashuvi ta'minlanmoqda. Bundan barcha sohalar qatori tibbiyot ham chetda qolayotgani yo'q. Inson salomatligi masalasi, kasalliklarni davolash va oldini olish masalasi hamma vaqt kun tartibida bo'lib kelgan. Shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot uchun zarur bo'lgan leksik minimium jamiyatning oddiy a'zosi uchun boshqa fanlarning maxsus leksikasidan ko'ra ancha ahamiyatli va amaliydir. Shuning uchun tibbiy terminlar boshqa sohadagi terminlarga qaraganda umumadabiy tilga tez kirib bormoqda. Tibbiy terminlar reklama matnlari, ommabop ma'lumotnomalar, tibbiy adabiyotlar, plakatlar va boshqalar orqali kundalik nutqda keng ommalashtiriladi. Boshqa hech bir fan tibbiyot kabi o'zining muhim tushunchalari bilan kishining kundalik hayotiga bu darajada chuqur kirib bormaydi. [2]

Terminlar, odatda, o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa lug'aviy birliklardan ajralib turadi. Ya'ni ular oddiy so'zlardan farqli o'laroq, bir ma'noliligi, ilm-fan, kasb-hunarga oidligi, emotsional-ekspressiv bo'yoq va stilistik belgi ifodalamasligi kabi bir qancha jihatlari bilan ajralib turadi. Lekin terminlar badiiy matnda qo'llanganda boshqa lug'aviy birliklar singari ekspressivlik kasb etib turli uslubiy ma'nolarni ifodalashi mumkin. Bunda terminlar o'z qobig'idan chiqib, umumxalq tushunadigan oddiy so'zga aylanadi. Natijada barcha nutq uslublarida qo'llanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Badiiy matnda terminlarni metaforik vosita sifatida qo'llanilishi ham o'ziga xos muhim jihatlardan biri sanaladi. Bu esa terminlarning mazmun-mohiyatini, funksional uslubiy xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Tibbiy terminlarning turli nutqlarda qo'llanilishini o'rganish maqsadida ommaviy axborot vositalari materiallari, badiiy adabiyotlar va lug'atlardan metaforalarga misollar keltiramiz:

Parda: Devorga mix qoqib, parda ilingan. To'rda mehrobda ko'rpalar taxlangan, ular ham atlasdan, bularning bari mehmonlar uchun // Ko'z pardasini davolamoq.

Kosa: Kosa to'la sut berardilar, to'yib-to'yib ichardim... // Qayt ortingga – ota-onangning qoshiga, xorlik qanotingni past tut, ko'zingning kosasini oyoq ostlariga poyondoz qil!

Xuruj: Xuruj – kasallikning og'riqli holatning avj olishi, kuchayish payti, shuningdek, ruhiy holatning keskin namoyon bo'lishi: fokus xuruji, yurak xuruji va boshqalar // mojaro yana xuruj qildi

Immunitet: Immunitet organizmning begona moddalar va hujayralarni tanib olish va olib tashlash orqali uning yaxlitligi va biologik identifikatsiyasini saqlab qolish qobiliyati. Ichki muhitning gomeostazini saqlab qolish uchun, asosan, immunotsitlarning funksional faoliyatining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. // Siyosiy faol va mas'uliyatli yoshlar aholi orasida turli mafkuraviy, informatsion, g'oyaviy xurujlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Organizm: Organizm – ko'payish vaqtida irsiy xususiyatlarni saqlagan holda, jonsiz materiyadan farqli, jumladan, modda almashinuvi, uning tuzilishi va tashkil topishini o'z-o'zini ta'minlash qobiliyatlari kabi xususiyatlar majmuiga ega bo'lgan jonli jismdir. // Markaziy Osiyoning yagona organizm ekanligi, hech qaysi bir davlat mintaqaviy muammolarni bir o'zi hal etolmasligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Patalogiya: Patalogiya - tirik organizmdagi og'riqli jarayonlar va sharoitlarni o'rganuvchi tibbiyot fanining bir bo'limi. U patalogik anatomiyadan iborat bo'lib, og'riqli jarayonlardan kelib chiqadigan organlar va to'qimalarning tuzilishidagi o'zgarishlarni, kasalliklarda organlar va umuman tananing

funksiyalarining buzilishi – patalogik fiziologiyani o‘rganadi. // Xususan, o‘rtachalashtirilgan ma’lumotlarga ko‘ra patalogik o‘yinchilar orasida 23 foizni jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar his qildi.

Vaksina: Vaksina – ma’lum bir antigenga qarshi orttirilgan immunitet hosil qiluvchi tibbiy biologik preparat. // “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari “Halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Lekin o‘sha vaksinani qayerdan olamiz”

Ko‘z: Ko‘z – to‘lqin uzunliklarining yorug‘lik oralig‘ida elektromagnit nurlanishni sezish qobiliyatiga ega bo‘lgan va ko‘rish funksiyasini ta’minlovchi sezgi organi (ko‘rish sistemasi organi). // Ko‘ngil ko‘zi

Yuqoridagi misollar va tanlangan metaforalar orqali shunday xulosaga kelish mumkin: Ilmiy konteksdan tashqari ishlatiladigan atama asl konsepsiyasini saqlamaydi yoki hech bo‘lmaganda qisman uni yo‘qotadi. Ilmiy atama umumiy tushunchasining bir qismi metaforalashadi, ya’ni mazmun-mohiyatiga sinchiklashmagan holda. Ko‘ngil ko‘zi deganda uning shakli, mazmuni, joylashishi, tuzilishi va boshqalarni hisobga olmasdan, faqat atamasining ko‘rish funksional tushunchasini hisobga olamiz. Metaforizatsiya keng tarqalgan, odam uchun oson o‘zlashtirilgan va ko‘zga ko‘rinmaydigan tibbiy atamalar bilan bog‘liq holda yasalgan inson tanasi a’zolari: oyoq, tomoq, bo‘yin, soch, oshqozon, quloq va boshqalar. Badiiy adabiyot, media materiallar, kundalik nutq va hokazolarda metaforalar muallifning kasbiy komponentligini, savodxonligini, shuningdek, ma’ruzachining hissiyotini ko‘rsatish, ishontirish maqsadlarda qo‘llaniladi. Masalan, Tohir Malikning “Shaytanat” asaridan: “Sen ko‘richakka o‘xshaysan”; Butunjahon iqtisodiyoti krizisi – moliyaviy trombni keltirdi; Bu muaommolardan yoki infarkt yoki insult bo‘lib qolish hech gap emas. Tibbiy atamalarni metaforalashuvida bu atamalarni tashuvchi sof ilmiy tsuhunchalar haqida gapirish mumkin emas. Ko‘proq bu uzoqdan, ba’zan bilvosita yoki majoziy ma’noga ega bo‘lgan “qobiq”ning bir turi. G. O. Vinokur ta’kidlaganidek: “Har qanday so‘z atama vazifasini bajarishi mumkin... Atama maxsus so‘z emas, balki faqat maxsus vazifadagi so‘z, maxsus tushunchani, maxsus obyekt yoki hodisaning nomlash funksiyasi”. Masalan, G‘afur G‘ulom she’rida:

Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim,
Quyoshday mehribon,
Vataning – onang...

Odam organizmi a’zosi jigar haqida hech qanday ilmiy bilimlarni umuman yetkazmaydi, balki uning mazmunida bu tashqi sekretsiya bezining hayotiy ahamiyatini mujassamlashtiradi. Axir inson tanasida uning yo‘qligi hayot uchun zid. Shuning uchun ham kundalik nutqda tibbiy atamalar shaxs yoki muayyan jamiyat olami lisoniy tasvirning subyektiv ta’siriga tushib qoladi. Badiiy adabiyot va kundalik hayotda ma’nosi kognitiv ko‘chirilgan termin-metaforalarni ham uchratish mumkin: “Giyohvandlik – bu asr balosi, o‘latdek ofatdir”, “Vahima virusi”, “Halollik vaksinasi”.

Nutq ishlab chiqarish va tushunishda tibbiy metaforalarning atrofdagi voqelik obyektlari va hodisalari xususiyatlaridan foydalanish jarayonlari va strategiyalari bilan bevosita bog‘liqligi mavjud. Bu kabi terminlarning metafora sifatida o‘ta murakkab va ko‘p qirrali hodisaning kelib chiqish tabiati, faoliyat tamoyillari, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish o‘rganilayotgan tilning madaniy, kognitiv va lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Xulosa. Terminlarning metaforalashuvi badiiy matnlarda qo‘llanilib, o‘ziga xos obrazli tasvir vositasi sifatida ta’sirchan, uslubiy bo‘yoq, emotsionallikni ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulxairova F. I. Tibbiyot terminlarini metaforik modellashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, monografiya – Toshkent: Bookmany print, 2024.
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.
3. Mahmudov I., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
4. Umarov X. T. Lotin tili va tibbiy-farmatsevtik terminologiya asoslari. – Toshkent, o‘quv qo‘llanma.
5. Usmanxo‘jayev A. Abilov O‘., Turaxanova M. Tibbiy atamalar izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyo, 2022.